

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**QODIROV OLIMJON RAXIMJON O'G'LI**

**AEROSILGA SUV, UGLEROD (IV) OKSIDI, BENZOL VA AMMIAK  
MOLEKULALARI ADSORBSIYA MOLEKULYAR MEXANIZMLARI**

**02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Namangan-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Qodirov Olimjon Raximjon o'g'li**

Aerosilga suv, uglerod (IV) oksidi, benzol va ammiak molekulari adsorbsiya  
molekulyar mexanizmlari ..... 3

**Кодиров Олимжон Рахимжон угли**

Молекулярные механизмы адсорбции молекул воды, оксида углерода,  
бензола и аммиака на аэросиле ..... 21

**Kodirov Olimjon**

Molecular mechanisms of adsorption of water molecules, carbon monoxide,  
benzene and ammonia on aerosil..... 41

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works .....44**

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**QODIROV OLIMJON RAXIMJON O'G'LI**

**AEROSILGA SUV, UGLEROD (IV) OKSIDI, BENZOL VA AMMIK  
MOLEKULALARI ADSORBSIYA MOLEKULYAR MEKANIZMLARI**

**02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Namangan-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.1.PhD/K947 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertasiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.namdtu.uz](http://www.namdtu.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta’lim tarmog‘iga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ergashev Oybek Karimovich**  
Kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abduraxmonov Eldor Baratovich**  
Kimyo fanlari doktori, professor

**Abdikamalova Aziza Baxtiyarovna**  
Kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «15» dekabr soat 13<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi 7-uy. Tel.: (69) 234-14-85; faks: (69) 234-14-85, e-mail: [info@namdtu.uz](mailto:info@namdtu.uz)), Namangan davlat texnika universiteti, 6-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi.

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (93-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi 7. Tel.:(69) 234-14-85).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 2-dekabr kuni tarqatildi.  
(2025 yil «2» dekabrda № 35-raqamli reestr bayonnomasi).

**I.T. Shamshidinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, t.f.d., professor

**O.T. Mallabayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, k.f.f.d., dotsent

**D.Sh. Sherqo‘ziyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiya annotasiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va talabgorligi.** Dunyoda sanoat korxonalaridan chiqadigan oqova suvlarni tozalashda ishlatiladigan kremniy va alyuminiy oksidlaridan iborat bo'lgan katalitik faol adsorbent va katalizatorlarni qo'llash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Neft va neft mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan oqava suvlarni turli xil organik va noorganik qo'shimchalar hamda metall ionlaridan samarali tozalash maqsadida yuqori sirt faolligiga ega Aerosil tipidagi adsorbentlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. So'nggi yillarda ishlash muddati uzoq bo'lgan va desorbsiya jarayonlari orqali qayta tiklanishi va qayta ishlatilish imkoni bo'lgan adsorbentlarga bo'lgan talab doimiy ravishda o'sib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, mahalliy xomashyodan olinadigan, import qilinadigan analoglarga munosib muqobil bo'lishi mumkin bo'lgan yuqori quvvatli, raqobatbardosh yuqori sirt yuzali adsorbentlarni sintez qilish usullarini ishlab chiqish, ularning sorbsion xususiyatlarini o'rganish va olingan natijalar asosida ilmiy va amaliy yangiliklarga erishish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jahonda yuqori sirt yuzali, qayta ishlatish imkoni bo'lgan hamda yuqori haroratga chiqdamli aerosilni olish texnologiyasini ishlab chiqish va ularning sorbsion jarayon mexanizmlarini tavsiflash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, hozirda mavjud maxsus sirt yuzali Aerosil adsorbentining sorbsion xususiyatlarini o'rganish; aerosil adsorbentlarini turi va ishlash davriyligini aniqlash; aromatik birikmalar bilan o'zaro  $\pi$ -komplekslarni shakllantirishga moyillik tavsiflash; adsorbsiyalangan qutbli va qutbsiz molekulalarining to'liq termodinamik qonuniyatlar asosida to'liq tavsiflash; faol sirt yuzalarga ega, yuqori haroratga chidamli va qayta ishlatish imkoniyati bo'lgan aerosil olishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ishlab chiqarish sanoatining jadal rivojlanishi ishlab chiqarish ob'ektlari yo'nalishiga qarab yangi mahsulotlar ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va mavjudlarini kengaytirish imkonini bermoqda. Bu esa o'z navbatida sifat jihatidan raqobatbardosh mahsulotlar turlarining hamda ularning ishlab chiqarish hajmining ortishiga xizmat qilmoqda. Jumladan, yuqori sirt yuzasiga va katalitik xususiyatlarga ega aerosil tipidagi adsorbentlarni olish, ularning adsorbsion xossalari chuqur o'rganish yo'nalishida muhim ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga qaratilgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining uchinchi yo'nalishida «Neft-gaz sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish orqali tabiiy gaz ta'minotida ijtimoiy himoya kafolatlari belgilangan holda bozor mexanizmlarini joriy etish»<sup>1</sup> vazifalari belgilangan. Bu borada yuqori sirt yuzaga ega Aerosil adsorbentlarni olish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

to'g'risida"gi Farmoni<sup>1</sup>da belgilangan vazifalarni amalga oshirishga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan 2022-yil 10-oktyabrdagi PQ-388-sonli "Kimyo va gaz kimyo sanoatini strategik rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorga, 2021-yil 15-dekabrdagi 753-sonli "Kimyo sanoati uchun innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish va ta'lim klasterini yaratish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasi Qaroriga, 2022-yil 7-iyuldagi PQ-309-sonli "Neft va gaz sanoatida ta'lim va ishlab chiqarish klasterini yaratish to'g'risida"gi Qarorga hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyoda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida rentgen nurlari difraksiyasi, neytron va sinxrotron spektroskopik usullar yordamida o'rganiladigan seolitlarning adsorbsion xossalari bo'yicha ishlar keng yoritilgan.

Xorijiy mualliflar (B.F. Mentzen, B. Boddenberg va O.P.Bellat) adsorbsion kalorimetriya bilan olingan ma'lumotlarni taqdim etadilar. N.N.Avgul, A.V.Kiselev, Ya.V. Mirskiy, M.V.Serdobov faqat o'rtacha to'ldirish bilan chegaralangan suv adsorbsiyasining differensial issiqliklari bo'yicha tadqiqot ma'lumotlarini nashr etdi. O'zbekistonda prof. A.A. A'zamxo'jaev, S.S. Xamrayev, S.Z. Muminov va Akbarov X.I. Magben vakuum qurilmasida gazlar va bug'larning sirt yuzali adsorbentlarda adsorbsiya izotermalarini o'rgangan.

O'zbekistonda A.A. Agzamxo'jaev, S.S. Xamrayev, S.Z. Mo'minov, I.D. Eshmetov, D.S. Salixanova, Sh.A.Kuldashevalar Angren ko'miri va gil minerallariga, H.I. Akbarov, A.Y. Yarkulovlar polimer-kremnezem gibrid nanokompozitlarga har xil molekulalar adsorbsiyasini vakuumli magben qurilmasida o'rganishgan. Mamlakatimizda k.f.d., professor G. U. Raxmatkariyev rahbarligida shakllangan ilmiy maktab doirasida sorbsiya va kataliz sohalarida samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy maktab vakillari — F.G. Raxmatkariyeva, O.K. Ergashev, X.N. Baxronov, E.B. Abduraxmonov, D.J.Jumaeva, Y.Yu. Yakubov, G'.A. Doliyev, T.D. Abdulxayev, M.X. Koxxarov va boshqalar tomonidan **A, X, Y va LSX rusumli seolitlar**, shuningdek **gil minerallari, aerosil, muskovit, silikalit, rutil** hamda boshqa turdagi adsorbentlarda yuqori vakuumli **adsorbsion mikrokalorimetrik uskunalar** yordamida kechuvchi adsorbsion jarayonlar mexanizmlarini chuqur o'rganishga qaratilgan keng ko'lamli tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Ushbu ishni bajarishda biz Germaniyaning Degussa firmasi tomonidan ishlab chiqariladigan Aerosil adsorbentidan foydalandik. Biz ushbu adsorbentlarni birinchi bo'lib o'rganganimiz sababli, olingan natijalar misli ko'rilmagan va fundamental muammolarni yoritib beradi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti

Namangan davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «NaLTA, CaLTA va sodalit molekulyar g'alvirlarida mezbon-mexmon bog'lanishlari mexanizmlari» hamda Umumiy va noorganik kimyo instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining FA-F-7-010 raqamli «Nanostrukturali fojazit tipidagi seolitlar panjarasi yuzasida ion-molekulyar klasterlarni energetikasi, tuzilishi va joylashishi» va «Alyuminiy va kremniy oksidlari bo'lgan import adsorbentlari o'rnini bosish, adsorbsiya nazariy asoslarini rivojlantirish maqsadida asosi kaolin bo'lgan adsorbent mikrog'ovaklari va yuzalarida suv bug'i, metil va etil spirtlari va boshqa birikmalarni sorbsiya energetikasini tadqiq etish» va «Qator sorbentlarni import o'rnini bosish va adsorbsiya nazariy asoslarini rivojlantirish maqsadida seolit, ko'mir adsorbentlari yuzasida sulfidlar va boshqa birikmalarni sorbsiya energetikasini tadqiq etish» mavzusidagi fundamental loyihalari va byudjet dasturini bajarish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Aerosil adsorbentida qutbli va qutbsiz molekulalarning adsorbsiyasiga xos termodinamik xususiyatlarni, sirt yuzasining tuzilishini hamda faol markazlarda adsorbat molekulalarining lokalizatsiya holatini yuqori aniqlikka ega adsorbsion kalorimetrik uskunalarda yordamida aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Aerosil adsorbentida suv, benzol, ammiak, azot va uglerod (IV) oksidi molekulalarining adsorbsiyasi jarayoniga xos izotermalarni, differensial issiqlik qiymatlarini, entropiya ko'rsatkichlarini hamda issiqlik muvozanatining vaqt tavsiflarini aniqlash;

Aerosil adsorbentida suv, benzol, ammiak, azot va uglerod (IV) oksidi molekulalari adsorbsiyasi izotermalarni tadqiq qilish va ularni sirt yuzalari BET va Lengmyur tenglamalari yordamida hisoblash;

Suv, benzol, ammiak, azot va uglerod (IV) oksidi molekulalarining adsorbsiyalangan holatida aerosil adsorbentida strukturasi tahlil qilish;

Aerosil adsorbentida suv, benzol, ammiak, azot va uglerod (IV) oksidi molekulalari adsorbsiyasidan hosil bo'ladigan ion-molekulyar komplekslar shakllanishi va adsorbent-adsorbat tizimlarini aniqlash;

Aerosil adsorbentlarining sorbsion ekspluatatsion davriyligini aniqlash va adsorbsion imkoniyatlarini tadqiq etish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida Aerosil adsorbenti, suv, benzol, ammiak, azot va uglerod (IV) oksidi molekulalari tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** adsorbsiyaning molekulyar mexanizmini, adsorbsion jarayonlarning qonuniyatlarini, shuningdek o'rganilayotgan seolitlarning matritsasida ion-molekulyar komplekslarning joylashuvi va holatini aniqlash tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada fizik va kolloid-kimyoviy, analitik hamda adsorbsion-kalorimetrik tadqiqot va tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Mikrokalorimetrik usulda suv, benzol, ammiak, azot va uglerod (IV) oksidi molekulalarining aerosil adsorbentida adsorbsiyasining adsorbsiya aniq izotermalari va to'liq termodinamik tavsiflari aniqlangan;

Aerosilda suv, ammiak, benzol va uglerod (IV) oksidi molekulalarining

adsorbsiya differensial issiqligi bosqichli ko‘rinishda egri chiziqlar bilan ifodalanib va har bir bosqichda faol sirt yuzalardagi proton va natriy kationlari bilan ion molekulyar komplekslar hosil bo‘lishi aniqlangan;

Aerosilga past haroratli azot adsorbsiya sirt yuzalari BET, Lengmyur tenglamalari yordamida hisoblandi. Aerosilni 150, 250, 350 va 450<sup>0</sup>C haroratlarda vakumli sharoitda tozalandi. Harorat ko‘tarilishi bilan azotga nisbatan o‘ziga xos sirt yuzalari kattalashishi aniqlangan;

Aerosil adsorbentiga suv, benzol, ammiak va uglerod (IV) oksidi molekulari adsorbsiyalanishi jarayonida, sorbent sirt yuzalarida joylashgan H<sup>+</sup> va Na<sup>+</sup> kationlarining sorbsion markazlarga migratsiyasi isbotlangan.

Aerosil adsorbenti faol sirt yuzalarida adsorbat molekulari proton va natriy kationlari bilan ((C<sub>6</sub>H<sub>6</sub>)<sub>n</sub>/Na<sub>n</sub><sup>+</sup>(H<sup>+</sup>), ((CO<sub>2</sub>)<sub>n</sub>/Na<sub>n</sub><sup>+</sup>(H<sup>+</sup>), ((NH<sub>3</sub>)<sub>n</sub>/Na<sub>n</sub><sup>+</sup>(H<sup>+</sup>) va (H<sub>2</sub>O)<sub>n</sub>/Na<sub>n</sub><sup>+</sup>(H<sup>+</sup>)) ion-molekulyar komplekslar hosil qiladi va kuchli adsorbsiyalanishi va lokalizatsiyalanishi aniqlangan;

Aerosil adsorbentida suv, benzol, ammiak, azot va uglerod (IV) oksidi molekularining adsorbsiya izotermalari yarim logarifmik qiymatlari hisoblandi va adsorbentga sorbsiyalangan molekularning sirt yuzalari BET, Lengmyur tenglamalari asosida tavsiflangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Aerosil adsorbentida suv, benzol, ammiak, azot va uglerod (IV) oksidi molekulari adsorbsiyasining asosiy termodinamik tavsiflari — izoterma, entalpiya, differensial molyar entropiya hamda issiqlik muvozanat vaqti bo‘yicha olingan natijalar asosida mahalliy xomashyolardan yuqori sorbsion hajmga ega mikrog‘ovakli sorbentlarni sintez qilish imkoniyati yaratilgan;

«Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJ da neftni qayta ishlashda chiqadigan oqova suvlarni aromatik birikmalar birikmalarni adsorbsiya qilib ajratib olish imkoniyatlari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tajriba natijalari kimyoviy (elementar, gravimetrik) va fizik-kimyoviy tahlil usullari, jumladan, olingan natijalar kalorimetrik o‘lchovlar hamda tegishli tajriba-sinov usullari orqali ilmiy jihatdan asoslab berilgan va eksperimental tarzda tasdiqlangan.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fizik-kimyoviy adsorbsiyaga oid nazariy bilimlarning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Yuqori aniqlikka ega bo‘lgan maxsus yuqori vakuumli adsorbsion qurilma yordamida olingan eksperimental natijalar asosida Aerosil adsorbentida suv, benzol, ammiak va uglerod (IV) oksidi molekularining adsorbsiyasi jarayoniga xos termodinamik funksiyalar to‘liq aniqlangan bo‘lib, bu ma’lumotlar ularning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini chuqur tahlil qilish uchun ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, turli o‘lchamdagi gaz va suyuq holatdagi aromatik birikma molekularining Aerosil yuzasiga yutilishi jarayoni boshlang‘ich bosimdan to to‘yinganlik bosimigacha bo‘lgan oraliqda chuqur o‘rganildi. Ushbu jarayonlarning to‘liq adsorbsion mexanizmlari hamda adsorbat molekularining faol markazlardagi kationlar bilan hosil qiladigan ion-molekulyar komplekslari aniqlanib, ularning shakllanish qonuniyatlari tahlil qilindi.

Olingan ilmiy natijalar asosida sanoat jarayonlarida sirt yuzasi yuqori bo'lgan adsorbentlarning samaradorligini oshirish, shuningdek xomashyolardan maqsadli komponentlarni ajratib olish va tozalash usullarini takomillashtirish imkoniyatlari ishlab chiqish, atrof-muhitni muhofaza qilish va kimyo-texnologiya tarmoqlarida innovatsion yechimlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari OTM magistrantlariga fizik, kolloid va tibbiy kimyo fanidan o'tiladigan maxsus kurslarda qo'llashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aerosil adsorbentining adsorbtsion xususiyatlarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Neft mahsulotlarini suv molekulalaridan tozalashda aerosil «Farg'ona NQIZ» MChJning «2026-2027-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Farg'ona NQIZ» MChJning 2025-yil 14-iyuldagi 15/84-son ma'lumotnomasi). Natijada, benzin va dizel yoqilg'isi tarkibidagi suv molekulalarini tozalash imkonini bergan.

Neftni qayta ishlashda neft mahsulotlarini tarkibidagi qo'shimcha aromatik birikmalardan tozalashda aerosil «Farg'ona NQIZ» MChJning «2026-2027-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Farg'ona NQIZ» MChJning 2025-yil 14-iyuldagi 15/84-son ma'lumotnomasi). Natijada, neftni mahsulotlari tarkibidan aromatik birikmalar (benzol) molekulalaridan tozalash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarini nashr etilganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy maqola chop etilgan bo'lib, ulardan 7 tasi ilmiy nashrlarda, shu jumladan 5 tasi Respublika jurnallarida, 2 tasi MDH davlatlarining jurnallarida O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida. Shuningdek, 11 ta tezislari ilmiy-amaliy anjumanlarda chop etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 137 bet.

## DISSERTASIYANING ASOSIY QISMI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zaruriyati, maqsad va vazifalari, o'rganilganlik darajasi, tadqiqot usullari, ob'ekti va predmeti, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishiga muvofiqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish ro'yxati keltirilgan, chop etilgan ishlar va dissertasiyaning hajmi, tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertasiyaning «**Aerosilning tuzilishi, sirt xossalari va sorbsion xususiyatlari**» deb nomlangan birinchi bobida, aerosil haqida umumiy tushuncha, qutbli va qutbsiz molekulalar adsorbtsiyasion xususiyatlari, ion-molekulyar mexanizmlari, suv va azotli birikmalarning adsorbtsiyasi buyicha xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertasiyaning «**Tadqiqot ob'ekti va fizik-kimyoviy usullari tavsifi**» deb nomlangan ikkinchi bobida universal adsorbtsion-mikrokolorimetrlil qurilmalarda

ishlash va olingan natijalarni nazariy hisoblashlarda foydalaniladigan formulalar va aerosilga sorbsiyalash usuli to‘g‘risida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Dissertasiyaning «**Aerosilga qutbsiz molekulari adsorbsiya qonuniyat-lari**» deb nomlangan uchinchi bobida aerosilga azot, benzol va uglerod (IV) oksidi molekularining adsorbsiya izotermasi, differensial issiqligi, adsorbsiya differensial entropiyasi va issiqlik muvozanat vaqti, adsorbatlarning aerosol sirt yuzalariga so‘rilishi kalorimetrik tahlillari keltirilgan.

**Aerosilga past haroratli azot molekulari adsorbsiyasi.** G‘ovakli tuzilmaning asosiy parametrlaridan biri bo‘lgan o‘ziga xos sirt maydoni ( $S_{sp}$ ), umumiy g‘ovak hajmi ( $V_s$ ) hamda o‘rtacha g‘ovak diametri ( $d_{pore}$ ) 77 K haroratda past haroratli azot adsorbsiyasi usuli asosida aniqlandi. O‘lchovlar **Quantachrome Nova 1000e** statik turdagi adsorbsion analizatori yordamida amalga oshirildi. Tadqiqotga jalb qilingan namunalar dastlab 100 °C haroratda 12 soat davomida vakuum sharoitida aktivlashtirildi. Azotning adsorbsiyasi va desorbsiyasi egri chiziqlari qisman bosim diapazoni 0,005 dan 0,995 P/P<sub>0</sub> gacha bo‘lgan oraliqda yozib olindi. Qoldiq bosim ostida aniqlangan adsorbsiyalangan gaz miqdoriga asoslangan holda, sirt maydonining hisob-kitoblari Brunauer–Emmett–Teller (BET) usuli orqali amalga oshirildi.

1-rasm tahliliga ko‘ra, karbonizatsiya harorati 150 °C dan 450 °C gacha oshirilganda mikrog‘ovaklar hajmi ( $V_a$ ) ortadi, bu esa harorat oshishi bilan mikrog‘ovakli tuzilmaning shakllanishi kuchayishini ko‘rsatadi.



**1-rasm Aerosilni turli haroratlarda qizdirish natijasida past haroratli azotning adsorbsiya va desorbsiya izotermalari: 1) A-150; 2) A-250; 3) A-350; 4) A-450.**

Izoterma asosida aerosilning past haroratli azot adsorbsiyasida olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval.**

**Aeosilning past haroratli azot adsorbsiyasida olingan natijalar**

Namuna	$S_{ud}$ , $m^2/g$	$S_{ud}$ , $m^2/g$	t - Plot (tashqi sirt), $m^2/g$	$V_a$ , $sm^3/g$	$V_b$ , $sm^3/g$	R, Å	O‘rtacha g‘ovak kengligi, Å	G‘ovaklar- ning o‘rtacha radiusi, Å
A-150	360.17	578.13	78.87	0.2147	0.25	21,97	127.11	6.895
A-250	517.67	879.17	166.89	0.3784	0.38	22,24	90.78	6,778
A-350	778.57	1278.47	185.26	0.4128	0.48	22.34	65.74	6.658
A-450	897.17	1347.21	203.36	0.4974	0.58	22.58	45.47	6.624


Aerosil materialining 400 °C dan yuqori haroratlarda regeneratsiya qilish jarayonida harorat sharoitlarini qat'iy nazorat qilish ularning tekstura xususiyatlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Bunday yondashuv aerosilning adsorbsion imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

**Aerosilga benzol molekulari adsorbsiyasining termodinamik tavsiflari.**

2(a)-rasmida Aerosil adsorbentida benzolning adsorbsion izotermasi yarim logarifmik koordinatalarda chizilgan. Izotermiya boshlang'ich fazadagi minimal adsorbsiyaga mos keladigan taxminan -7,58 logarifmik qiymatdan boshlanadi. Adsorbsiya jarayoni davom etar ekan, izoterm egri chizig'ining asta-sekin o'sishi kuzatiladi, bu adsorbent yuzasida benzol molekularining progressiv to'planishini ko'rsatadi. Adsorbsiya taxminan 200 mkmol/g ga yetganda, logarifmik qiymat -5,5 ga ko'tariladi, bu esa kirish mumkin bo'lgan adsorbsiya joylarida molekulyar lokalizatsiya boshlanishini bildiradi.

Adsorbsiya izotermasi  $0,017 < P/P^0 < 0,39$  nisbiy bosim diapazonida BET koordinatalari yordamida chizilganda chiziqli munosabatni namoyish etadi. Hisoblangan bir qatlamli adsorbsion quvvati ( $a_m$ ) 605 mkmol/g, adsorbsiya energiyasini aks ettiruvchi mos keladigan BET konstantasi esa 1,01 ga teng. Ushbu qiymatlardan foydalangan holda, benzol adsorbsiyasi uchun o'ziga xos sirt maydoni 198 m<sup>2</sup>/g deb baholandi.

2(b)-rasmida tasvirlanganidek, Aerosil yuzasida benzol molekulari uchun differensial adsorbsiya issiqligi ( $Q_d$ ) qiymatlari asta-sekin pasayuvchi, ammo to'liqinsimon xarakterga ega bo'lgan profilni namoyon etadi. Adsorbsiyaning boshlang'ich bosqichida  $Q_d$  68,50 kJ/mol dan 49,85 kJ/mol gacha kamayadi, bu esa yuqori energiyali adsorbsion markazlarning ketma-ket ishg'ol etilishi natijasida molekula–yuzaga o'zaro ta'sir energiyasining pasayishini ko'rsatadi.



**2-rasm. a) 303 K da Aerosil adsorbentida benzol bug'i adsorbsiyasi izotermalari  
b) 303 K da Aerosil adsorbentida benzol adsorbsiyasi differensial issiqligi. 303 K da benzol adsorbsiyasi gorizontal uzuq chiziqlar –issiqlik kondensasiyasi**


Adsorbsiyaning taxminan 51,2 mkmol/g darajasida  $Q_d$  qiymati 48 kJ/mol atrofida barqarorlashadi, bu esa yuzadagi nisbatan past energiyali, ammo barqaror adsorbsion markazlarning ishg'ol etila boshlashini anglatadi. 300 mkmol/g gacha cho'zilgan adsorbsion oralig'ida o'zaro ta'sir mexanizmi faqat van der Waals kuchlari bilan cheklanmay, balki benzol molekularining  $\pi$ -elektron tizimi va Aerosil matritsasiga kiritilgan gidroksid guruhlari yoki ishqoriy metall kationlari (masalan, Na<sup>+</sup>) o'rtasida  $\pi$ -komplekslarning hosil bo'lishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Adsorbsion ma'lumotlarning differensial issiqligi shuni ko'rsatadiki,

benzolning o'zlashtirilishi taxminan 200 mkmol/g ga yetgandan so'ng, adsorbsiya aerosil faol markazlarining sirt yuzalariga o'tadi. Keyingi bosqichda benzol molekullari adsorbsiya energiyasi 38.60 dan 688 kJ/mol gacha bo'lgan tashqi sirt hududlari bilan tobora o'zaro ta'sir qiladi. Bu bosqichda adsorbsiyaning differensial issiqligi 68,50 kJ/mol dan 33,82 kJ/mol gacha pasayadi, bu esa o'zaro ta'sir kuchining asta-sekin kamayishini ko'rsatadi.

3(a)-rasmda Aerosil adsorbentida benzol adsorbsiyasining differensial entropiyasi keltirilgan. Differensial entropiyani hisoblash Gibbs-Gelmgolts tenglamasi yordamida adsorbsiya izotermasi va adsorbsiyaning differensial issiqligining eksperimental aniqlangan qiymatlari asosida amalga oshirildi.

$$\Delta S_d = \frac{\Delta H - \Delta G}{T} = \frac{-(Q_d - \lambda) + A}{T}$$

$\lambda$ -issiqlik kondensatsiyasi,  $\Delta H$  va  $\Delta G$ -entalpiya va erkin energiya o'zgarishi,  $T$  – harorat,  $Q_d$  – o'rtacha differensial issiqlik.



**3-rasm. a) 303K temperaturada Aerosil adsorbentida benzol adsorbsiyasi differensial entropiyasi. Gorizontaal shtrix chiziqlar – o'rtacha integral entropiya b) 303 K temperaturada Aerosil adsorbentida benzol adsorbsiyasi muvozanat vaqti**

Miqdoriy jihatdan, kremniy dioksidiga asoslangan materiallarda benzol adsorbsiyasi uchun entropiya o'zgarishi odatda sirt xususiyatlariga, haroratga va qoplamaga qarab -10 dan -35 J·mol<sup>-1</sup>·K<sup>-1</sup> oralig'ida topiladi. Ushbu salbiy qiymat quyidagilarni aks ettiradi. Adsorbsiya o'rtacha molyar integral entropiya -10,24 J·mol<sup>-1</sup>·K<sup>-1</sup> ni tashkil etadi, bu adsorbsiyalangan fazaning termodinamik xususiyatga ega ekanligi haqidagi tushunchani mustahkamlaydi.

3(b)-rasmda adsorbsiya kinetikasi shuni ko'rsatadiki, 200 mkmol/g yuklanganda benzol adsorbsiyasi birinchi navbatda adsorbsiyaning differensial issiqligi nisbatan yuqori bo'lgan adsorbent qatlamlararo hududlarida sodir bo'ladi. Bu 2 dan 3 soatgacha bo'lgan cho'zilgan muvozanat vaqtlari bilan bog'liq. Qo'shimcha qatlamlarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan keyingi adsorbsiya bosqichida tizim tezroq muvozanatga erishadi - taxminan 1 soat ichida. Oxirgi bosqichda, tashqi bazal sirtlarda adsorbsiyaga mos keladigan, muvozanat 20 daqiqa ichida erishiladi, bu energiya kamroq talab qilinadigan sirt domenlarida adsorbsiya tezligining oshishini aks ettiradi.


**Aerosilga uglerod (IV) oksidi molekullari adsorbsiyasining termodinamik tavsiflari.** CO<sub>2</sub> ning eksperimental haroratdagi yuqori to'yingan bug' bosimi (30 ° C da P°=54086 mmHg) Aerosil adsorbentida to'liq adsorbsion izotermi olishni

cheklaydi. Binobarin, Aerosilda CO<sub>2</sub> adsorbsiyasi uchun faqat qisman izoterm 4(a)-rasmida tasvirlangan.

Dastlabki bosqichda adsorbsiya izotermasi ijobiy egri traektoriyani ko'rsatadi, u adsorbsion sig'im taxminan 100 mkmol/g ga yaqinlashganda tez ko'tarilish bilan tavsiflanadi. Brunauer-Emmett-Teller (BET) modeli yordamida izotermni baholash Aerosil namunasi uchun 76,8 m<sup>2</sup>/g o'ziga xos sirt maydonini berdi.

Aerosilda CO<sub>2</sub> adsorbsiyasining differensial issiqligi adsorbsiyalovchi molekulalar bilan yuzadagi faol markazlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchini ifodalaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, adsorbsiyaning dastlabki bosqichlarida differensial issiqlikning yuqori qiymatlari kuzatiladi, bu esa silanol guruhlariga yaqin joylashgan kuchli energetik markazlarga CO<sub>2</sub> molekulalarining mahkam bog'lanishini anglatadi. Adsorbsiya davom etgan sari yuzadagi faollik markazlari band bo'lib boradi va differensial issiqlik bosqichma-bosqich kamayadi.

Aerosil yuzasida karbonat anhidrid (CO<sub>2</sub>) molekulalarining adsorbsiyasi jarayonida o'lchanadigan differensial issiqlik qiymatlari, CO<sub>2</sub> molekulalari va amorf kremniy dioksidi (SiO<sub>2</sub>) yuzasidagi aktiv markazlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchlarining miqdoriy ifodasidir. Dastlabki, past qoplama darajalarida kuzatilgan yuqori differensial issiqlik qiymatlari, energiya jihatidan eng qulay bo'lgan va odatda silanol ( $\equiv\text{Si}-\text{OH}$ ) guruhlari bilan bog'liq bo'lgan yuqori-aktiv sirt markazlarida kuchli adsorbat-adsorbent o'zaro ta'sirlarini anglatadi. Ushbu markazlar asosan gidrogen bog'lanishlar va dipol-induktsiya mexanizmlari orqali CO<sub>2</sub> molekulalarini barqarorlashtiradi.




**4-pacm. a) 303 K da aerosil adsorbentida uglerod (IV)-oksidi adsorbsiyasi izotermalari b) 303 K da aerosil adsorbentida uglerod (IV)-oksidi adsorbsiyasi differensial issiqligi. 303 K da benzol adsorbsiyasi gorizontall uzunq chiziqlar –issiqlik kondensasiyasi**

Aerosil adsorbentida CO<sub>2</sub> molekulalarining adsorbsiyasi jarayonida o'lchangan differensial issiqlik profili (4(b)-rasm) jarayonning bosqichma-bosqich kechishini va energetik jihatdan murakkab tuzilishga ega ekanligini yaqqol namoyon etadi. Past sirt qoplamasi sharoitida (ya'ni, adsorbat molekulalari soni nisbatan kam bo'lganda) dastlabki adsorbsion entalpiya qiymati 62,0 kJ/mol ni tashkil etadi. Adsorbsiyaning ilk fazasida entalpiya asta-sekin, to'liqsimon pasayish tendensiyasini namoyish qiladi, bu esa adsorbent sirtining energetik geterogenligini va faol markazlarning energiya taqsimoti bir xil emasligini tasdiqlaydi. Yuklama 0,11 mmol/g ga yetganda adsorbsion issiqlik 43,8 kJ/mol gacha kamayadi, so'ngra 0,20 mmol/g da lokal maksimal qiymatga — 40,97 kJ/mol ga ko'tariladi. Bu oraliq o'zgarishlar, ehtimol,

CO<sub>2</sub> molekularining dastlab yuqori energiyali markazlardan pastroq energiyali markazlarga o'tishi, so'ngra esa yangi, nisbatan kuchliroq sirt markazlari bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida yuzaga keladi. Adsorbsiyaning yanada chuqurlashishi bilan entalpiya yana pasayib, 0,23 mmol/g da minimal 35 kJ/mol ga tushadi, biroq 0,80 mmol/g yuklama darajasida yana o'rtacha 40 kJ/mol atrofida tiklanadi. Ushbu issiqlik tebranishlari adsorbat molekularining turli tipdagi sirt markazlari bilan ketma-ket va selektiv o'zaro ta'sirlashishidan kelib chiqadi. Aerosil sirtini faol metall komponentlari bilan modifikatsiyalash adsorbsion issiqlikni oshirishi mumkin. Bunday modifikatsiya adsorbent-adsorbat o'zaro ta'sirlarini kuchaytirib, ion-molekula komplekslari hosil bo'lishini rag'batlantiradi va natijada CO<sub>2</sub> ning bog'lanish barqarorligini sezilarli darajada oshiradi.

5(a)-rasmida karbonat angidridning (CO<sub>2</sub>) Aerosil yuzasiga adsorbsiyasi jarayonida entropiya o'zgarishlari grafik ko'rinishda ifodalangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adsorbsion sig'im 50 mkmol/g dan past bo'lgan holatlarda entropiya qiymatlari CO<sub>2</sub> ning standart entropiyasidan past bo'lib, bu boshlang'ich adsorbsiya bosqichida molekulyar erkinlikning sezilarli darajada pasayishini aks ettiradi. Bu, o'z navbatida, gaz molekularining yuzaga adsorbsiyalanishi natijasida ularning translatsion va rotatsion harakatchanligining cheklanishi bilan bog'liqdir. Biroq, adsorbsion sig'im ushbu chegaradan oshganda, entropiya qiymatlari standart holat ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lib, bu molekularning yuzada yuqori harakatchanlikka ega bo'lishi yoki yuzaki strukturaning qisman buzilishi holatini bildiradi. O'rta hisobda integral adsorbsiya entropiyasi -5,86 J/mol·K ga teng bo'lib, bu CO<sub>2</sub> ning Aerosil yuzasida o'zaro ta'siri va adsorbsion jarayonning termodinamik xossalarini ifodalaydi.



5-rasm. a) 303K temperaturada aerosil adsorbentida uglerod (IV)-oksidi adsorbsiyasi differensial entropiyasi. Gorizontaal shtrix chiziqlar – o'rtacha integral entropiya b) 303 K temperaturada Aerosil adsorbentida uglerod (IV)-oksidi adsorbsiyasi muvozanat vaqti

5(b)-rasmida karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>) molekularining Aerosil adsorbentiga adsorbsiyasi jarayonida muvozanat vaqtining o'zgarishi ko'rsatilgan. Dastlabki bosqichlarda tizim taxminan 1,5 soat davomida muvozanatga erishadi, ammo adsorbsiya jarayoni rivojlanishi bilan muvozanat vaqti doimiy ravishda qisqarib, oxir-oqibat bir necha daqiqagacha kamayadi. Eksperimental natijalar shuni ko'rsatdiki, CO<sub>2</sub> ning Aerosil yuzasida adsorbsiyalanishi odatda 2–3 soat davomida muvozanat holatiga yaqinlashadi. Ammo sirtning to'yinganlik darajasi ortishi bilan, ya'ni sorbsion markazlar sonining kamayishi sababli, muvozanat vaqti sezilarli darajada qisqarib, bir necha daqiqagacha kamayadi. Ushbu holat Aerosil yuzasida

mavjud bo'lgan adsorbsion markazlarning turli energetik faollik darajalariga ega ekanligini ko'rsatadi, bu esa gaz molekularining adsorbsiya kinetikasini va adsorbsion termodinamikani murakkablashtiradi.

Dissertasiyaning «**Aerosilga qutbli molekular adsorbsiya qonuniyatlari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida aerosilga suv va ammiak molekularining adsorbsiya izotermasi, differensial issiqligi, adsorbsiya differensial entropiyasi hamda adsorbsiya muvozanat vaqtlari haqida ma'lumotlar batafsil berilgan.

**Aerosilga suv molekulari adsorbsiyasining termodinamik tavsiflari.** Aerosil adsorbentidagi suv molekularining adsorbsion izotermalari tizimli va batafsil o'rganildi. 303 K haroratda o'lchangan izoterma natijalari 6(a)-rasmda ko'rsatilgan. Adsorbsion jarayonning nisbiy bosim diapazoni 0,05 dan 0,4 gacha (P/Ps) oralig'ida Brunauer–Emmett–Teller (BET) tenglamasining koordinatalarida chiziqli bog'lanish kuzatildi. Ushbu chiziqlilik adsorbsiyaning ushbu bosim diapazoni doirasida monomolekulyar qatlam hosil qilish bosqichida sodir bo'layotganini isbotlaydi, ya'ni suv molekulari Aerosil yuzasida bir qatlam shaklida joylashmoqda.

Natriy kationlari bilan modifikatsiyalangan Aerosil namunasi uchun suv molekularining bir qatlamli adsorbsion sig'imi ( $a_m$ ) 1,767 mkmol/g sifatida aniqlangan. Bundan tashqari, adsorbsion jarayonning bog'liq energiya konstantasi 14,32 mkmol/g ni tashkil qilib, bu parametr adsorbsiyaning energetik xususiyatlari va molekular bilan yuzaki o'zaro ta'sirlarning mustahkamligini aks ettiradi.

Tadqiqot davomida Aerosil yuzasining suv bilan o'zaro ta'sirida o'ziga xos sirt maydoni 162,1 m<sup>2</sup>/g ekanligi hisoblab chiqildi. Agar suv molekularining zich va homogjen monolayer (bir qatlam) hosil qilish sharti qabul qilinsa, har bir suv molekulasi yuzada egallagan maydoni taxminan 15,8 Å<sup>2</sup> deb hisoblanadi. Bu qiymat molekularning Aerosil yuzasida qanday joylashishini va adsorbsion qatlamning fizikaviy o'lchamlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.


Aerosil adsorbentida 303 K haroratda o'lchangan suv molekularining differensial adsorbsiya issiqliklari ( $Q_d$ ) 6(b)-rasmda grafik ko'rinishda keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, boshlang'ich adsorbsion yuklanish darajasida, taxminan 1,20 mkmol/g da, adsorbsiya issiqligi 69,09 kJ/mol qiymatiga teng bo'lib, bu Aerosil yuzasida energetik jihatdan yuqori faollikka ega bo'lgan adsorbsiya joylarining mavjudligini bildiradi. Birinchi bosqichda adsorbsion issiqlik 57,17 kJ/mol dan 52,25 kJ/mol gacha kamaygan bo'lib, bu bosqichda adsorbsion yuklanish 49 mkmol/g dan 62,52 mkmol/g gacha o'zgaradi. Keyingi bosqichlarda, jumladan ikkinchi bosqichda adsorbsiya issiqligi 61,81 kJ/mol gacha pasayadi, to'rtinchi bosqichda esa, adsorbsion yuklanish taxminan 348 mkmol/g ga yetganda, differensial issiqlik yana 50,17 kJ/mol darajasiga tushadi.

Bundan tashqari, ikkinchi qo'shimcha bosqich mavjudligi aniqlangan bo'lib, u umumiy issiqlik o'zgarishining 10,25 kJ/mol ga teng bo'lishiga sabab bo'ladi. Birinchi bosqich esa Aerosil yuzasidagi strukturaviy nuqsonlar bilan bog'liq bo'lib, taxminan 20 mkmol/g suv molekularining adsorbsiyasiga mos keladi. Bu bosqich yuqori faollikdagi faol markazlarning dastlabki to'yinish jarayonini ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Aerosil adsorbentida sodir bo'layotgan adsorbsion jarayon har bir bosqichda taxminan 50,1 kJ/mol va ~45,6 kJ/mol


qiymatlarida ikki qavatli adsorbsiya qatlamining shakllanishiga olib keladi. Ushbu bosqichlar natijasida hosil bo‘lgan umumiy adsorbsion sig‘im esa 3155 mkmol/g gacha yetadi. Suv molekularining adsorbsion xususiyatlari asosida, dastlabki faol adsorbsiya markazlari asosan taxminan 77 mkmol/g hajmidagi H<sup>+</sup> kationlaridan iborat ekanligi aniqlangan.

